

**MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA MTT TARBIYACHILARINING 4K
KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH TAMOYILLARI.****Ravshanova Xafiza Komilovna**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi, Maktabgacha,
boshlang'icha va maxsus ta'lim metodikalari kafedrası o'qituvchisi**xafizakomilovna@gmail.com**

ORCID: 0009-0007-6041-4917

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining malaka oshirish jarayonida 4K ko'nikmalari — kreativlik, kritik fikrlash, kommunikatsiya va kollaboratsiyani rivojlantirish tamoyillari ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'limga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlari, maktabgacha ta'lim davlat standarti, takomillashtirilgan "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi, shuningdek, OECD va P21 kabi xalqaro manbalardagi yondashuvlar asos qilib olindi. Maqolada malaka oshirish tizimida 4K ko'nikmalarini rivojlantirishning kompetensiyaviy, integrativ, refleksiv, amaliyotga yo'naltirilgan va hamkorlikka asoslangan tamoyillari ochib berilgan. Natijada MTT tarbiyachilarining kasbiy samaradorligini oshirish uchun 4K ko'nikmalarini malaka oshirish mazmuni, metodlari va baholash mexanizmlariga tizimli singdirish zarurligi asoslandi.

Kalit so'zlar. 4K ko'nikmalari, malaka oshirish, MTT, tarbiyachi, kreativlik, kritik fikrlash, kommunikatsiya, kollaboratsiya, kasbiy kompetensiya.

**ПРИНЦИПЫ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ 4К У ВОСПИТАТЕЛЕЙ
ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ В ПРОЦЕССЕ
ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ**

Аннотация. В данной статье с научной, теоретической и практической точек зрения анализируются принципы развития навыков 4К — креативности, критического мышления, коммуникации и сотрудничества — в процессе профессионального развития воспитателей дошкольных учреждений. Исследование основано на нормативно-правовых документах Республики Узбекистан о дошкольном образовании, государственном стандарте дошкольного образования, усовершенствованной государственной учебной программе «Первый шаг», а также подходах из международных источников, таких как ОЭСР и P21. В статье раскрываются компетентностно-ориентированные, интегративные, рефлексивные, практико-ориентированные и кооперативные принципы развития навыков 4К в системе профессионального развития. В результате обоснована необходимость систематического

включения навыков 4К в содержание, методы и механизмы оценки профессионального развития с целью повышения профессиональной эффективности воспитателей дошкольных учреждений.

Ключевые слова: навыки 4К, профессиональное развитие, воспитатель, креативность, критическое мышление, коммуникация, сотрудничество, профессиональная компетентность.

PRINCIPLES FOR DEVELOPING THE 4C SKILLS OF PRESCHOOL EDUCATORS IN THE PROFESSIONAL DEVELOPMENT PROCESS

Abstract. This article analyzes the principles of developing 4K skills - creativity, critical thinking, communication and collaboration - in the process of professional development of preschool educators from a scientific, theoretical and practical point of view. The study was based on the regulatory and legal documents of the Republic of Uzbekistan on preschool education, the state standard of preschool education, the improved state curriculum "First Step", as well as approaches from international sources such as OECD and P21. The article reveals the competency-based, integrative, reflexive, practice-oriented and collaborative principles of developing 4K skills in the professional development system. As a result, the need for systematic incorporation of 4K skills into the content, methods and assessment mechanisms of professional development in order to increase the professional efficiency of preschool educators was substantiated 1.

Keywords. 4K skills, professional development, MTT, educator, creativity, critical thinking, communication, collaboration, professional competence.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisidan faqat metodik bilim emas, balki kreativ yondashuv, tanqidiy tahlil, samarali muloqot va hamkorlikda ishlash kabi XXI asr kompetensiyalari ham talab etilmoqda. Shu sabab malaka oshirish jarayoni tarbiyachining kasbiy bilimini yangilash bilan birga, uning 4K ko'nikmalarini tizimli rivojlantirishga xizmat qilishi zarur [1].

O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'limga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlari, xususan, davlat standarti, kasbiy standart va takomillashtirilgan "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi pedagog faoliyatini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etishni taqozo etadi [2][3][7]. Xalqaro manbalarda ham kreativlik, kritik fikrlash, kommunikatsiya va kollaboratsiya pedagogning professional samaradorligini belgilovchi tayanch ko'nikmalar sifatida e'tirof etiladi [4][5].

Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolaning maqsadi malaka oshirish jarayonida MTT tarbiyachilarining 4K ko'nikmalarini rivojlantirish tamoyillarini ilmiy jihatdan asoslash va ularni amaliyotga tatbiq etish yo'llarini yoritishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot sifat tavsifidagi ilmiy izlanish sifatida tashkil etildi va unda nazariy manbalarni chuqur tahlil qilishga asoslangan yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning metodologik negizini kompetensiyaviy yondashuv, tizimli tahlil, shaxsga yo'naltirilgan pedagogika, faoliyatga yo'naltirilgan o'qitish hamda refleksiv yondashuv tashkil etdi. Aynan shu¹ metodologik tayanchlar 4K ko'nikmalarini alohida elementlar emas, balki tarbiyachining yaxlit kasbiy faoliyatida namoyon bo'ladigan o'zaro bog'liq kompetensiyalar majmui sifatida ko'rib chiqish imkonini berdi.

Metodologik jihatdan tadqiqotning muhim tomoni shundaki, unda malaka oshirish jarayoni tayyor bilimlarni uzatish tizimi sifatida emas, balki tarbiyachining kasbiy o'sishini ta'minlaydigan faol pedagogik muhit sifatida talqin qilindi. Shu bois tahlil jarayonida refleksiya, hamkorlik, muammoli vaziyatlarni hal etish, loyihaviy ishlar, mikroo'qitish va amaliy mashg'ulotlar kabi shakllarning 4K ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni alohida baholandi. Aynan shu yondashuv maqolaning natijalar qismida taklif etilgan tamoyillarni shakllantirishga metodologik asos bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqotning ishonchliligini ta'minlash maqsadida turli turdagi manbalarni o'zaro solishtirish tamoyiliga amal qilindi. Ya'ni me'yoriy-huquqiy hujjatlar, dasturiy materiallar, xalqaro konseptual asoslar va ilmiy maqolalardan olingan ma'lumotlar bir-biri bilan qiyoslandi. Bu esa bitta manbaga tayanib qolmasdan, muammoni ko'p manbali va ko'p nuqtayi nazardan yoritishga imkon berdi. Natijada maqolada ilgari surilgan xulosalar nazariy asoslangan, me'yoriy jihatdan tayangan va amaliyotga mos shaklda ishlab chiqildi. Shuningdek, tadqiqotda deduktiv va induktiv mushohada yo'llaridan ham foydalanildi. Dastlab umumiy ilmiy va me'yoriy qarashlardan kelib chiqib 4K ko'nikmalarining mazmuni belgilandi, so'ngra alohida manba va tajribalardan umumiy metodik xulosalar chiqarildi. Bunday yondashuv tadqiqotning mantiqiy izchilligini ta'minlab, 4K ko'nikmalarini rivojlantirish tamoyillarini nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham asoslash imkonini berdi.

Tadqiqot jarayonida bir nechta ilmiy usullar ketma-ket va o'zaro uyg'un holda qo'llanildi. Kontent-tahlil metodi yordamida tanlangan me'yoriy hujjatlar va ilmiy manbalardagi asosiy tushunchalar, prinsiplar va takrorlanuvchi g'oyalar saralab

¹O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonunida pedagogning kasbiy standarti pedagogning bilimlari, mahorati va ko'nikmalariga doir asosiy talablar majmui sifatida talqin etiladi

²Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda 802-son qarori bilan tasdiqlangan Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti maktabgacha ta'limning maqsadi, vazifalari, prinsiplari va joriy etish tartibini belgilaydi.

³Takomillashtirilgan "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi maktabgacha ta'lim mazmunini rivojlantiruvchi, integrativ va kompetensiyaviy asosda tashkil etishga xizmat qiluvchi muhim dasturiy manba sifatida qo'llanadi.

olindi. Qiyosiy tahlil metodi orqali milliy va xorijiy yondashuvlarning o'xshash hamda farqli jihatlari aniqlandi. Analitik-sintetik metod asosida turli manbalardagi qarashlar umumlashtirilib, MTT tarbiyachilarining 4K ko'nikmalarini rivojlantirishga doir yaxlit tamoyillar tizimi ishlab chiqildi. Pedagogik interpretatsiya usuli esa olingan nazariy xulosalarni malaka oshirish amaliyoti nuqtai nazaridan sharhlashga xizmat qildi. Ikkinchi guruh manbalarni xorijiy ilmiy-nazariy adabiyotlar tashkil etdi. Xususan, P21 Framework for 21st Century Learning, erta yoshdagi ta'lim uchun 4C yondashuvi, OECDning kreativlik va kritik fikrlashni rivojlantirishga doir professional learning framework hujjatlari hamda pedagoglarning 4K ko'nikmalarini rivojlantirishga bag'ishlangan zamonaviy tadqiqotlar o'rganildi [4][5][6][8]. Ushbu manbalar orqali 4K ko'nikmalarining xalqaro talqini, ularni pedagog tayyorlash va malaka oshirish tizimiga integratsiya qilish mexanizmlari hamda samarali metodlar aniqlashtirildi.

Tadqiqotning manba bazasi bir necha yo'nalishda shakllantirildi. Birinchi guruh manbalarini O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim sohasiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlari tashkil etdi. Jumladan, "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonun, Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti, MTT pedagogining kasbiy standarti hamda takomillashtirilgan "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi tahlil qilindi [1][2][3][7]. Ushbu hujjatlar asosida tarbiyachining kasbiy faoliyatiga qo'yilgan zamonaviy talablar, kompetensiyaviy tayyorgarlik yo'nalishlari va malaka oshirish mazmunining ustuvor jihatlari ajratib olindi.

Natijalar. Tahlillar natijasida malaka oshirish jarayonida MTT tarbiyachilarining 4K ko'nikmalarini rivojlantirish quyidagi asosiy tamoyillar asosida tashkil etilishi lozimligi aniqlandi.



1. Kompetensiyaviy yo‘naltirilganlik tamoyili. Malaka oshirish dasturlari bilimlarni shunchaki yangilash bilan cheklanmasdan, tarbiyachining amaliy faoliyatida namoyon bo‘ladigan kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilishi kerak. Pedagogning kasbiy standarti shaxsiy fazilatlar, kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarga doir minimal talablarni belgilaydi ⁷. Demak, 4K ko‘nikmalari malaka oshirish kurslari mazmuniga alohida modul sifatida emas, balki barcha mavzu va amaliy topshiriqlarning ichki mezon sifatida singdirilishi kerak. Masalan, mashg‘ulotda tarbiyachi faqat metodni eslab qolmasligi, balki uni tanqidiy tahlil qilishi, moslashtirishi, jamoa bilan ishlab chiqishi va o‘z g‘oyasini aniq ifodalay olishi talab etiladi.²

2. Integrativlik tamoyili. 4K ko‘nikmalari bir-biridan ajralgan holda emas, o‘zaro bog‘liq holda shakllanadi. OECD va P21 manbalarida ham ushbu ko‘nikmalar birgalikda qo‘llanilganda chuqur o‘qitish va samarali kasbiy rivojlanishga xizmat qilishi ko‘rsatilgan ⁴⁵⁶. MTT tarbiyachisi uchun bu ayniqsa muhim: masalan, yangi didaktik o‘yin yaratish kreativlikni talab qilsa, uni bolalar yoshiga moslashtirish³ kritik fikrlashni, jamoaviy rejalashtirish kollaboratsiyani, taqdim etish va muhokama esa kommunikatsiyani talab etadi. Shunday ekan, malaka oshirish mashg‘ulotlari kompleks topshiriqlar asosida qurilganda 4K ko‘nikmalari birgalikda rivojlanadi.

3. Amaliyotga yo‘naltirilganlik tamoyili. Malaka oshirish samaradorligi tinglovchining real pedagogik vaziyatlarga yechim topa olishida namoyon bo‘ladi. Shu sabab kurslarda mikroo‘qitish, keys-stadi, muammoli vaziyatlar tahlili, loyihaviy ishlanmalar, ochiq mashg‘ulot ssenariylari va reflektiv portfoliolar kabi faol metodlar ustuvor bo‘lishi kerak. OECD professional learning framework hujjatlarida ham o‘qituvchilarning kreativlik va kritik fikrlashni rivojlantirishi uchun ularga tajriba almashish, sinovdan o‘tkazish va refleksiya imkoniyatini beruvchi professional o‘rganish muhiti zarurligi ta’kidlanadi ⁵. Bu yondashuv MTT tarbiyachilarining 4K ko‘nikmalarini “eshitilgan bilim” darajasidan “amalda qo‘llanadigan malaka” darajasiga olib chiqadi.

4. Refleksivlik tamoyili. 4K ko‘nikmalarining barqaror shakllanishida tarbiyachining o‘z faoliyatini tahlil qila olishi hal qiluvchi omildir. Refleksiya jarayonida tarbiyachi o‘z darsidagi muloqot sifati, bolalarda mustaqil fikrlashni rag‘batlantirgan-rag‘batlantirmagani, jamoa bilan ishlash uslubi va ijodiy yondashuvini baholaydi. Tarbiyachining kasbiy kompetensiyasiga oid mahalliy manbalarda ham refleksiya va innovatsion faoliyatga tayyorgarlik kasbiy

⁵ OECDning o‘qituvchilar uchun professional learning framework hujjatlarida kreativlik va kritik fikrlashni rivojlantirish uchun o‘qituvchilarni uzluksiz professional qo‘llab-quvvatlash zarurligi ta’kidlanadi.

⁶ P21ning “21st Century Learning for Early Childhood” manbasida 4C ko‘nikmalarini erta bolalik davridan boshlab rivojlantirish mumkinligi va zarurligi ko‘rsatiladi.

⁷ 2025-yil 8-iyuldagi 423-son qaror bilan tasdiqlangan MTT pedagogining kasbiy standarti pedagogning shaxsiy fazilatlarini, kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yiladigan minimal talablarni belgilaydi.

mahoratning muhim tarkibi sifatida ko'rsatiladi ¹⁰. Refleksiv tahlil bo'lmagan malaka oshirish tashkiliy jihatdan to'liq bo'lsa ham, ichki kasbiy o'sishga yetarlicha ta'sir ko'rsatmaydi.

5. Hamkorlikka asoslangan rivojlantirish tamoyili. Kollaboratsiya 4K modelining tarkibiy qismi bo'lishi bilan birga, qolgan uch ko'nikmani rivojlantiruvchi kuchli vosita hamdir. Hamkorlikka asoslangan malaka oshirishda tinglovchilar kichik guruhlarda muammo yechadi, kuzatuv va tahlil asosida fikr bildiradi, o'zaro baholaydi va birgalikda mahsulot yaratadi. Xorijiy tadqiqotlarda 4K ko'nikmalarini rivojlantirishda hamkorlikdagi o'qish, loyihaviy faoliyat va tajriba almashishning samaradorligi qayd etilgan ⁸. MTT tizimida esa bunday yondashuv tarbiyachi, metodist, rahbar va ota-ona o'rtasida yagona pedagogik hamkorlikni shakllantirishga xizmat qiladi.

6. Shaxsga yo'naltirilgan va kontekstual moslik tamoyili. Har bir tarbiyachining tajribasi, ehtiyoji, ishlash muhiti va metodik qiyinchiliklari turlicha bo'ladi. Shu sabab malaka oshirish mazmuni umumiy qolip asosida emas, balki tinglovchilarning real professional ehtiyojlari va hududiy-muassasaviy sharoitlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi kerak. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonunda ham kasbiy standart hududlarning madaniy, demografik va boshqa xususiyatlari inobatga olingan holda to'ldirilishi mumkinligi qayd etilgan ¹. Bu 4K ko'nikmalarini rivojlantirishda yagona sxemadan ko'ra moslashuvchan, kontekstga sezgir yondashuv afzal ekanini ko'rsatadi.

Muhokama. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, MTT tarbiyachilarining 4K ko'nikmalarini rivojlantirish masalasi malaka oshirish tizimida alohida mavzu emas, balki butun o'quv jarayonining metodologik asosi bo'lishi kerak. Chunki maktabgacha ta'limda bola faoliyatining markazida o'yin, muloqot, kuzatish, tajriba, tasavvur va hamkorlik turadi. Demak, bolalarda ushbu sifatlarni rivojlantirish uchun avvalo tarbiyachining o'zi ularga ega bo'lishi lozim. Xalqaro va mahalliy manbalar tahlili bu fikrni tasdiqlaydi: 4K ko'nikmalari nafaqat o'quvchilarda, balki pedagoglarning o'zida ham kasbiy muvaffaqiyatning muhim sharti hisoblanadi ⁴⁵⁸⁹.

Shu bilan birga, amaliyotda ayrim muammolar mavjud. Birinchidan, malaka oshirish kurslari ba'zan nazariy axborot berish bilan cheklanib qoladi. Ikkinchidan, 4K ko'nikmalarini baholash mezonlari yetarlicha aniq ishlab chiqilmagan hollari uchraydi. Uchinchidan, kursdan keyingi kuzatuv va mentorlik mexanizmlari sust bo'lsa, olingan bilimlar amaliyotga to'liq ko'chmaydi. OECD hujjatlarida ham professional rivojlanish samarali bo'lishi uchun u uzluksiz, hamkorlikka asoslangan va sinf amaliyotiga bog'langan bo'lishi kerakligi ko'rsatiladi ⁵. Shu bois MTT tarbiyachilarining 4K ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan malaka oshirish dasturlarida seminar, trening va ma'ruza bilan bir qatorda amaliy laboratoriya,

⁴reflektiv suhbat, kuzatuv, ko‘rgazmali dars va mentorlikni uyg‘unlashtirish maqsadga muvofiq.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, malaka oshirish jarayonida MTT tarbiyachilarining 4K ko‘nikmalarini rivojlantirish zamonaviy maktabgacha ta’lim sifatini oshirishning muhim omilidir. Tadqiqot natijasida ushbu jarayonni samarali tashkil etishning asosiy tamoyillari sifatida kompetensiyaviy yo‘naltirilganlik, integrativlik, amaliyotga yo‘naltirilganlik, refleksivlik, hamkorlikka asoslanganlik hamda shaxsga yo‘naltirilgan kontekstual moslik tamoyillari aniqlandi. Mazkur tamoyillar asosida tashkil etilgan malaka oshirish kurslari tarbiyachining nafaqat metodik bilimini, balki uning kasbiy tafakkuri, kommunikativ madaniyati, ijodiy salohiyati va jamoada ishlash qobiliyatini ham rivojlantiradi. Natijada bu bolalar bilan ishlash sifati, ta’limiy faoliyat mazmuni va MTTning umumiy pedagogik muhitiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. ⁵

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi. Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida gi Qonun, O‘RQ-595, 2019.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti, 802-son qaror, 2020.
3. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi. Takomillashtirilgan “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi, 2022.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogining kasbiy standarti, 423-son qaror, 2025.
5. Battelle for Kids. Framework for 21st Century Learning. 2019/2023.
6. Battelle for Kids. 21st Century Learning for Early Childhood Framework. 2019.
7. OECD. Supporting Teachers to Foster Creativity and Critical Thinking. Paris: OECD.
8. OECD. Fostering Students’ Creativity and Critical Thinking. Paris: OECD, 2019.
9. Ganiyeva, M. A. Ta’limda yangi texnologiya: 4K modeli va uni amalga oshirish yo‘llari.
10. Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisining kasbiy kompetensiyasiga oid mahalliy ilmiy maqolalar va qo‘llanmalar.

8 Xorijiy tadqiqotlarda 4K modelini o‘qituvchi tayyorlash va professional rivojlanishga integratsiya qilish pedagoglarning samaradorligini oshirish omili sifatida baholanadi.

9 O‘zbek ilmiy manbalarida 4K modeli zamonaviy ta’limni tashkil etishning samarali usuli sifatida talqin qilinib, uning kreativlik, tanqidiy fikrlash, kommunikativlik va hamkorlikni rivojlantirishdagi roli yoritiladi.

10 Mahalliy tadqiqotlarda MTT tarbiyachisining kasbiy kompetensiyasi, kommunikativ madaniyati, refleksiyasi va innovatsion yondashuvi ta’lim sifatini oshirishning muhim omili sifatida ko‘rsatiladi.